

TRENER SHAXSIGA XOS KASBIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH ZARURIYATINING PEDGOGIK ASOSLARI

Rasulov Zokir Pardayevich¹

¹Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti. Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Ushbu maqola bo'lajak sport trenerlarining kasbiy salohiyati mavzusiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqola matnida trener salohiyatini tushuntiruvchi psixologik va pedagogik sifatlarining ayrim nazariy tadqiqotlari tahlil etilgan. Maqolada keltirilgan ilmiy tushunchalar va ilmiy konsepsiyalar tahlilida ilmiy manbalar asos qilib olindi.

Kalit so'zlar: trener, sportchi, pedagogik obro', psixologik xususiyatlar, pedagogik takt, musobaqa, kasbiy salohiyat, qobiliyat, psixomotor harakat, emotsiya.

Kirish

Ijtimoiy mavqe va ta'lim omili – ushbu ikki omil ham trenerning samarali ishlashi uchun muhim sanaladi. Bu yerda gap diplomga ega bo'lish, yoki nufuzli universitetda o'qish haqida emas balki, ta'lim bu avvalambor, trenerning kasbiy tayyorgarlik darajasi, bilim va ko'nikmalarini haqiqiy hayotda qo'llay olish qobiliyati kabilar bilan tavsiflanadi. Inson diplom tufayli lavozimga ega bo'lishi mumkin, ammo uni ushlab turish, davom ettirish holati diplomning o'zi bilan belgilanmaydi. Buning uchun avvalo, maxsus ijtimoiy iqtidor ya'ni bilim va ko'nikmalar, kasbiy kompetensiyalar ham kerak bo'ladi.

Kasbiy kompetentlik mazmunini o'rganish, bo'lg'usi trenerlarning kelgusi faoliyatidagi kasbiy tayyorgarligi mazmunini tahlil etish ham sanaladi.

Hozirga qadar "kompetentlik", "kasbiy mahorat", "kasbiy kompetensiya" kabi tushunchalarining aniq ta'riflari mavjud emas. Barcha ta'riflar bir xil mazmunda ya'ni kompetensiya - kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan turli muammolarni hal qilishdagi shaxsning alohida qobiliyati. Shuningdek, kompetensiya sportchi shaxsning ajralmas xususiyati, o'quv jarayonida qo'lga kiritilishi mumkin bo'lgan ijobiy kasbiy fazilatlar majmui ham sanaladi.

Hozirgi musobaqalar bo'lajak sport trenerlaridan ko'plab qobiliyatlar turini talab qilib, u zamonaviy bilimlarning barcha

jabhalarini egallashni, sportchilarni tayyorlashning psixologik, ijtimoiy, mantiqiy kabi barcha jihatlarini nazarda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, sportchining muvaffaqiyati uning treneriga bog'liqdir - ya'ni trenerning bilimlari, pedagogik qobiliyati, vakolati, intellekti, tajribasi, irodasi, ijodkorligi va hokazo.

Materiallar va metodlar

Ilmiy va ilmiy - uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish oldimizga qo'yigan barcha vazifalarini hal etish uchun foydalanildi va tadqiqot vazifalarini tanlashda hamda olingan natijalarni muhokama etishda asosiy uslub bo'lib xizmat qildi. Mavzuga aloqador yo'nalishlarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahliliy yoritildi.

Natijalar va muhokama

Trener, avvalo o'qituvchi, trenerga o'qituvchi sifatida amalga oshirishi lozim bo'lgan qator talablar yuklatiladi. Ko'pchilik tadqiqotchilar sportda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlardan aynan mahoratni birinchi o'ringa qo'yadilar. Shu o'rinda savol tug'iladi, qaysi fazilatlar trenerning mahoratini oshiradi va uni qanday pedagogik va psixologik tarkiblari mavjud va hokazo. Rus tadqiqotchi olimlari ta'kidicha, trenerlarning malakasi o'ziga xos xususiyatlar bilan aniqlanib, ya'ni turli

ko'nikmalarga ega bo'lgan tezlik va daraja kabi sifatlar bilan tavsiflanadi.

Sportga oid psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kasbiy tashabbus va tayyorgarlik masalalari o'z mazmunida professional kasbiy konsepsiyaning mohiyatini, uning tarkibiy qismlarini, shakllari va shakllanish usullarini tushunishga oid qator yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi.

Bu borada qator mashhur amaliyotchi psixolog va pedagoglar ham quyidagicha ta'rif berganlar.

G.S.Tumanyan fikricha, sport trenerining mahorati murakkab jarayon bo'lib, uni tahlil etish mantiqan bir-biriga bog'liq bo'lgan

qator pedagogik topshiriqlarning yechimini topishdan iboratdir. Sprotda pedagogik vazifa trenerlik faoliyatining asosiy maqsadidir,

trener kasbiy faoliyati davomida istiqbolli, taktik va texnik masalalarni hal qilish haqida puxta bilimlar tizimiga ega bo'lishi shart sanaladi [1; 27 - b.].

Psixologik tahlilga ko'ra, bo'lajak sport trenerining professional sifatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: g'oyaviylik, axloqiylik, kommunikativlik, irodalilik, intellektuallik, idroklilik, diqqatlilik, kuchli xotira hamda harakat xotirasiga egalilik va hokazo. Trenerlik faoliyatida dunyoqarash ham asosiy o'rin egallab, u uning sportdagi pedagogik faoliyat yutuqlari, o'z xalqiga, davlatiga sodiq xizmat qilishi, shogirdlariga bo'lgan bag'rikenglik sifatlari bilan belgilanadi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, bo'lg'usi trenerlar nafaqat jismoniy jihatdan balki, intellektual jihatdan yetuk, o'z kasbiy sohasiga doir ilg'or bilimlarni egallagan, ruhiy-ma'naviy jihatdan yetuk shaxs bo'lmog'i muhim hisoblanadi. Ba'zi psixologik va pedagogik adabiyotlarda kasbiy kompetensiyaning ikki turi farqlanadi:

– oddiy kompetensiya – bilim, ko'nikma va qobiliyatlar asosida osongina shakllanadi va u muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

– asosiy kompetensiya – shaxsning dunyoqarashi, ma'naviy dunyosi, kasbiy

faoliyatining muhim jihatlari orqali shakllanadi.

Yuqoridagi tasnifdan ko'rinadiki, bo'lajak trenerlar ham asosiy kompetentlikka to'liq ega bo'lishlari shart sanaladi. Shuningdek, mazkur kompetentlik ularning kelgusidagi xizmat faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitidir.

Tadqiqotchi A.K. Markova kasbiy kompetentlikning quyidagi turlarini ajratadi [2; 308 b.].

Maxsus kompetensiya – juda yuqori darajada kasbiy professionallikka ega bo'lish, ya'ni keyingi kasbiy istiqbolni ko'ra olish qobiliyati. Bundan tashqari ushbu kompetensiya shaxsning ishlab chiqarish jarayonidagi rejalashtirish qobiliyatini, kompyuter bilan ishlash, texnik xujjatlarni yuqori saviyada o'qish qobiliyatlarini ham qamrab oladi.

Ijtimoiy kompetensiya – birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlikka, guruhiy ishlashga ustunlik, shuningdek, kasbiy faoliyat natijalari uchun yuqori ijtimoiy javobgarlikka ega bo'lish.

Shaxsiy kompetensiya – kasbiy faoliyatda o'zini namoyon qilish va o'zini o'zi rivojlantirishga egalik. Shuningdek, ushbu kompetensiya shaxsdagi o'z ishini rejalashtirish, uni boshqarish va tartibga solish, mustaqil ravishda qaror qabul qilish qobiliyati, innovatsion yechimlarni topish qobiliyati nazariy va amaliy fikrlash, muammolarni ko'rish qobiliyati kabilarni ham qamrab oladi.

Individual kompetensiya – kasbiy faoliyatda shaxsning o'zini o'zi anglashi va rivojlanishi, kasbiy o'sishga tayyorlik, o'z-o'ziga ishonch, yuqori motivatsiya, o'zini himoya qilish qobiliyati, vaqtni va kuchni to'g'ri taqsimlay olish, fidokorna ishlashga aoslangan qobiliyat. Muallifning xulosasiga ko'ra, yuqoridagi kompetentlik turlari insonning to'satdan murakkab sharoitlardagi ishlash faoliyatida va uni bajarishi jarayonida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, bu holat bo'lajak trenerlarning kelgusidagi xizmat faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu esa, o'z-o'zidan kasbiy kompetentlik tushunchasini o'qituvchilik kasbi orqali tadqiq etish zaruratini ham

yuzaga keltiradi. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi – bu pedagogik faoliyat muammolarining eng yaxshi yechimi uchun o'qituvchida mavjud bo'lgan nazariy va amaliy tajribalar, yoki bilim va ko'nikmalarining kombinatsiyasidir.

Demak, har bir jismoniy tarbiya universitetida pedagogik faoliyat olib borayotgan trenerlar va pedagoglar talaba shaxsida shakllanuvchi kasbiy kompetentlik va uni ta'minlovchi ayrim psixologik va pedagogik asoslarga keng e'tibor qaratmoqlari lozim sanaladi.

Tadqiqotchi S.V.Li mulohazasicha, bo'lajak sport treneri har bir shogirdning kelajagi uchun mas'uldir. Ya'ni shogirdlari qalbida vatanparvarlik hisini o'yg'ota olish uchun avvalo trenerning o'zi fidoiy shaxs bo'lishi lozim. Shuningdek, trener xalqaro miqyosdagi shaxs bo'lib, xalqlar o'rtasida mahorat almashuvchi, tinchlikni mustahkamlash uchun vositachi ham sanaladi [3; 143 - b.].

Trener qator axloqiy fazilatlarining majmuasiga ega bo'lishi kerak, chunki sportchilarning axloqiy tarbiyasi nafaqat trenerning og'zaki ta'siriga, balki o'zida ham shu sifatlar mavjud bo'lishi lozimdir. Sportchilarni axloqiy tarbiyalashda trener o'zini shaxsiy misol qilib ko'rsatishi bu-eng yaxshi ishonitirish yo'lidir. Trener doim har tomonlama o'z ustida ishlashi kerak, aks holda uning yutuqlari ko'p bo'lmaydi. Trener bu-to'g'ri xulq-atvorga ega bo'lgan shaxs. Yosh sportchilarni yuqori darajadagi rivojlanish tendensiyasiga taqlid qilishlari uchun, trenerlar ularning xatti – harakatlarini doimiy nazorat qilishi lozim. Bundan tashqari trener shaxsida qator psixologik sifatlar, kechinmalar mavjud bo'lib, ularni izohlash trenerlar haqidagi bilimlar ko'lamini yanada boyitadi.

Sport trenerlarining eng muhim irodaviy xususiyatlari: sobitqadamlik, tashabbuskorlik, jasorat, qat'iylik, chidamlilik va dadillik kabi qator irodaviy sifatlar kiritiladi. Besabr sport treneri sportchilar bilan mashg'ulot ishlarini muvaffaqiyatli olib bora olmaydi, chunki u shogirdlarining ko'zlarida yuqori obro'ga ega emas. Yoki ba'zi sabrsiz trenerlar shogirdlarini natijalarga tez

erishtirmoqchi bo'lganligi sababli, jismoniy yukni majburiy ravishda oshirib, ketma-ket mashg'ulotlar o'tishadi, aslida mashg'ulot bosqichma-bosqich o'tkazilishi lozim. Bu holat o'z-o'zidan mashqlarning bajarilishi tamoyillarini buzib, sportchilar salomatligiga putur yetkazadi.

Trenerlik faoliyatida intellektual xususiyatlar ham ahamiyatli sanalib, u trenerlarda ta'lim ishlarini to'g'ri olib borish, mashg'ulotlar samaradorligini tez aniqlashda va ta'lim-tarbiyaning yangi usullarini topishlarida katta yordam beradi. Ushbu fazilatlarga quyidagilar kiradi: fikrlashning ravshan va mustahkamligi, tanqidiyligi, kuchli tasavvur, aql-zakovat, fikrlashdagi ta'sirchanlik kabilar sifatlar trenerning tez rivojlanib borayotgan muammolarga tez yechim topa olish qobiliyatini ifodalaydi. Trenerdagi o'tkir zehn sportchi harakatlarini, harakatlari o'zgarishini, vaziyatni baholash va qabul qilish tezligi kabi ijobiy sifatlar bilan izohlanadi. Bo'lajak sport treneri emotsional jihatdan ochiq, do'stona va barqaror bo'lishi kerak, ayniqsa, musobaqalar paytida sportchini nazorat qilishi lozim. Uning zakovati yetarli darajada bo'lib, o'ziga bo'lgan ichonch takomillashgan bo'lishi kerak. Zamonaviy sport treneri qat'iyatli, mustaqil, ish bilarmon bo'lishi bilan birga yangilikni targ'ib etuvchi novatorlik sifatiga egaligi shart sanaladi.

Amerikalik amaliyotchi psixolog Dj.B.Krettning fikricha, trenerlik kasbidagi muvaffaqiyat nafaqat trenerning bilimdonligi, balki uning qay tarzda sportchilar bilan aloqa o'rnatgani bilan ham belgilanadi. Ayrim tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, yangilikni tezda anglab yetuvchi trenerlar ko'proq ijodkor sanaladi va ularning faoliyati keng dasturli hisoblanadi [4; 224 - b.].

Bo'lg'usi sport trenerlarining kommunikativ xususiyatlariga kirishimlilik, xushmuomalalik, xayrihohlik sifatleri kirib, guruhdagi ijobiy psixologik iqlimni belgilaydi. Bu sifatlar trenerga shogirdlari bilan tez va oson til topishishda yordam beradi va trener faoliyatidagi ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyati ham sanaladi.

Trener doim samimiy bo'lmog'i lozim, ammo bu samimiylik va oddiylik qo'l ostidagilarga nisbatan homiylik yoki egoistik munosabatga aylanmasligi lozim. Atrofdagilarning xatti-harakatlariga sabr-toqat bilan qarab, ularning xatolarini sekin tushuntirishi kerak. Sportchilarga ham talabchanlik ham hurmat bilan yondashish yo'li bu eng maqbul pedagogik takt bo'lib, u og'zaki tarzda amalga oshiriladi.

Tadqiqotchi M.I.Stankinga ko'ra, mashg'ulot vaqtida o'rgatishda hurmat va talabni me'yorida qo'llash- pedagogdagi eng asosiy xususiyatdir. U sportchilar bilan bo'lgan munosabatlarda me'yorni bilishda, sportchilarga bo'lgan hurmat va g'amxo'rlikni talabchanlik bilan uyg'unlashtira olganlik bilan izohlanadi. Trenerdagi yana bir pedagogik takt - bu shogirdlarga bo'lgan hurmat va muhabbatdir hamda shogirdlar bilan suhbatlashish uchun qulay joy va suhbat vaqtini belgilay olish sifatidir [5; 368 - b.].

Tadqiqotchi G.S.Tumanyan trener modelining rivojlanishi haqida gapirar ekan, u quyidagilarni ta'kidlaydi [6; 494 - b.]:

- "Axloqiy va irodaviy xususiyatlarning o'rtacha ko'rsatkichlari;
- Kasbiy xususiyatlarni anglash, yani sportchilik va pedagogik yetuklik;
- Sportchilar, hamkasblar, ma'muriyatlar, sport hakamlari va sport bilan shug'ullanadigan boshqa shaxslar bilan munosabatlardagi ochiqlik.

Bundan tashqari bo'lg'usi sport trenerida "ishonch, faollik, jamoatchilik, ahillik, yuksak hurmat tuyg'usi, burch, mag'rurlik, mehr-oqibat, qat'iyatlik, mas'uliyat, talabchanlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, kamtarlik, o'ziga tanqidiy baho berish" kabi qator xususiyatlarni ajratishni taklif qiladi. Bunday kompleks tadqiq trener va uning butun bir psixologik qiyofasini aniq tushuntirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, nomdor sportchilarni tayyorlashda xizmat qiladigan trenerlarning roli kattadir. Trener esa, o'z navbatida, sportchilarni faqat jismoniy tarafdin emas, ularni psixologik tarafdin ham tayyorlashlari lozim bo'ladi. Sportchilarda tashabbuskorlik, mustaqillik, ishonch,

jasurlik, tetiklik kabi irodaviy va ma'naviy xususiyatlarni aynan trenerlar shakllantirishi lozim.

Bundan tashqari, sportchining ishonchi - uning trenerga bo'lgan munosabatlari va to'g'ri harakatlarida namoyon bo'ladi. O'ziga, o'z kuchiga ishonch - bu sportchining o'z ustida ko'p ishlashining natijasi bo'lib hisoblanadi. Trenerning bu boradagi tarbiyaviy roli nihoyatda kattadir. Chunki u sportchining mahoratini oshiradi, unga kerakli ko'nikma sifatlarining shakllanishida katta yordam beradi. Trener sportchi bilan pedagogik ishlarni olib borish jarayonida uning umumiy tayyorgarligiga va alohida vositalarni ishlata olish darajasiga baho berishi shartdir. Trener sportchining psixikasiga yaxshi ta'sir ko'rsatib, unda o'ziga nisbatan ishonch hissini tarbiyalashi lozim. Shu bilan birga, sportchining mashqlanish va musobaqa jarayonida yo'l qo'ygan kamchiliklarini ko'rsatib, uni tuzatish takomillashishida kerakli bo'lgan yo'llarni ko'rsatib borishi lozim.

Sport treneri faoliyatini pedagogik va psixologik jihatdan o'rgangan V.Malkinning aytishicha, bo'lg'usi trener pedagogik kompetentligining istiqbol ko'rsatkichlari quyidagilar bilan belgilanadi [7; 260 - b.]:

- trenerda sotsial intellektning yuqorigi;
- akademik qobiliyatning mavjudligi;
- kreativ tafakkurga egaligi;
- pedagogik altruizm (kasbdagi fidoiylilik).

Tadqiqotchi tomonidan taklif etilgan ushbu sifatlar sport treneri faoliyatining samaradorligini ta'minlovchi psixologik mezonlar sanaladi.

Yuqoridagi tasnifdan farqli o'laroq, irodaviy sifatlarining sportdagi roli ham muhim sanalib, uni sportchilarda tarbiyalash trener pedagogik kompetentligining o'ziga xos komponentlaridan biri sanaladi.

Misol uchun, yakkakurash sport turlarida sportchida ishonchni tarbiyalash uchun himoyalani mashqlarini bajarish katta ahamiyat kasb etadi. Musobaqalarga qatnashish sportchilar uchun katta yordam beradi. Chunki musobaqalarda sportchining texnik-taktik tayyorgarligi, jismoniy va irodaviy sifatleri sinovdan o'tadi.

Musobaqalarda g'alaba qozonish sportchilarda o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch hissining kuchayishiga olib keladi va ular yana yuqori natijalarga erishish uchun harakat qilishadi.

Sportchining jasorati – uning o'z kuchiga ishonishidir. Sportchi tez qaror qabul qilib, qat'iy hisob-kitoblar chuqur texnik bilimlar asosida harakatlarni amalga oshiradi. Ma'naviy ustunlik uchun bevosita kurashda sportchining o'zi mard, chaqqon harakat qilishi lozim. Trener mashg'ulotlarda sportchidan ijodiy, dadil va ishonchli harakatni talab qilishi lozim.

Tetiklik sportchi qobiliyatida namoyon bo'ladi va kurash sharoitidagi qiyinchiliklarga qaramay, sportchi matonat bilan g'alabaga erishish uchun harakat qiladi. Sportdagi dadillik uning mohirligi bilan mos kelsa, ayniqsa ahamiyatga ega. Chunki, bu sportchiga himoyada va taktik harakatda juda mos keladi.

Sport psixologiyasining yetakchi olimlaridan sanalgan Ye.P. Ilin bo'lajak trener-trenerlarning o'z shogirdlari bilan yuqori natijalarga erishishiga yordam beradigan bir qancha amaliy tavsiyalarni taklif etadi. Ya'ni ular [8; 464 - b.]:

1. Bo'lajak trener sportchilarning psixologik tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratishi lozim va turli psixologik metodikalardan foydalanib sportchilardagi salbiy holatlarni bartaraf etishi lozim;

2. Bo'lajak trener sportchilarning individual xususiyatlari, oila sharoiti, jamiyatdagi o'zni haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim;

3. Bo'lajak trener yosh sportchilarga alohida e'tibor qaratishi va ularga o'z-o'zini boshqaruv mexanizmlarini o'rgatishi lozim;

4. Agar bo'lajak trener sportchilarni psixologik va pedagogik tayyorlashda yetarli tajribaga ega bo'lmasa, guruhga darhol professional psixologni taklif etishi lozim.

Shunday qilib, trenerning professional malakasi uning maqsadlari, tabiati, tarkibi, vositalari, usullari, kasbiy faoliyati xususiyati, ushbu faoliyat texnologiyasini o'zlashtirishga qaratilganligini anglatadi.

Pedagogik tadqiqotlarda vakolatga ega bo'lish ikki komponentga ega bo'lishni ta'kidlaydi: nazariy va amaliy, lekin professional malakaning tarkibiy qismlari barcha tadqiqotchilar tomonidan turli yo'llar bilan aniqlanadi. Pedagogik faoliyatda professional malaka konsepsiyasining asosiy elementlari: umumiy va pedagogik madaniyatning yuqori darajasi, gumanitar yo'nalish, kasbiy va axloqiy fazilatlar, kasbiy bilimlar va ko'nikmalar, pedagogik qobiliyatlar va ijodkorlik xususiyatlaridir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kasbiy-kompetentlik va pedagogik mahorat tushunchalari o'z mazmunida, qator pedagogik va psixologik fazilatlar majmuini aks ettirib, ular borasida kengroq tadqiqotlar olib borish nafaqat pedagogika fani sohasiga, balki sport psixologiyasi sohasiga ham qator ilmiy yangiliklar olib kelishi ehtimoldan holi emas.

Trenerning kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishuvini ta'minlovchi psixologik va pedagogik omillar quyidagilar:

- rivojlangan prognozlash qobiliyati;
- sotsial intellekt, ijtimoiy idrok;
- shaxsiy intilish, qaror qabul qilish, yutuqqa nisbatan motivatsiyasi, rivojlangan o'zini o'zi boshqarish.

Bo'lajak trenerning kasbiy faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlovchi trenerlik kompetensiyalarining tarkibi bu kasbiy bilimlar, ko'nikmalar, psixologik xususiyatlar, kasbiy qarashlar kabilar bilan tavsiflanib, ular doimo o'zaro ta'sirga va rivojlanishga egadir.

Pedagogical foundations for the necessity of enhancing professional competencies inherent to a trainer's personality.

Rasulov Zokir Pardaevich¹

¹*Institute for retraining and advanced training of specialists in physical education and sports. Tashkent, Republic of Uzbekistan.*

Abstract. This article is devoted to the topic of professional potential of future sports coaches. The article also analyzes some theoretical studies of psychological and pedagogical qualities that reveal the potential of a coach. The analysis of scientific concepts and notions presented in the article is based on scientific sources.

Keywords: coach, athlete, pedagogical reputation, psychological characteristics, pedagogical tact, competition, professional potential, abilities, psychomotor movement, emotion.

Педагогические основы необходимости совершенствования профессиональных компетенций, свойственных личности тренера

Расулов Зокир Пардаевич¹

¹Институт переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту. г. Ташкент, Республика Узбекистан.

Аннотация. Данная статья посвящена теме профессионального потенциала будущих спортивных тренеров. Также в статье анализируются некоторые теоретические исследования психологических и педагогических качеств, раскрывающих потенциал тренера. В основу анализа научных понятий и концепций, представленных в статье, положены научные источники.

Ключевые слова: тренер, спортсмен, педагогическая репутация, психологические особенности, педагогический такт, соревнование, профессиональный потенциал, способности, психомоторное движение, эмоция.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Туманян Г.С. Профессия тренер. // Теор. и практ. физ. культ. 1998, № 1, С.27/.
2. Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Знание, 1996. -308 с.
3. Ли Ц.В. Направленность личности в профессиональном становлении педагога- тренера по спорту: дис. канд. психол. наук / Ц.В. Ли. - СПб., 1999. - 143 с.
4. Кретти Брайнет Дж. Психология в современном спорте. - М.: Физкультура и спорт, 2009. - 224 с.
5. Станкин М.И. Профессиональные способности педагога: Акмеология воспитания и обучения. М.: Московский психолого-социальный институт; Флинта, 1998. - 368 с.
6. Туманян Г.С. Стратегия подготовки чемпионов: (настольная книга Тренера М.: Советский спорт, 2006. - 494 с.
7. Малкин В., Рогалева Л. Спорт - это психология: монография. М.: Спорт, 2015. - 260 с.
8. Ильин Е.П. Дифференциальная психофизиология. СПб.: Питер, 2001. - 464 с.